“O‘zkimyosanoat” AJ “Yashil makon” umummilliy loyihasida faol ishtirok etmoqda

// 22.10.2024
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-yashil-makon-umummilliy-loyihasida-faol-is

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi mamlakatimizda ekologik vaziyatni yanada yaxshilash hamda iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirini yumshatishning samarali yechimiga aylandi.

Mazkur loyiha doirasida “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalari tomonidan mevali, manzarali daraxt va buta ko‘chatlari hamda qalamchalar ekish hamda ekilgan daraxtlarni parvarishlash, qurib qolishini oldini olish shuningdek, tomchilab sug‘orish tizimini joriy qilishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, tarmoq korxonalari tomonidan 2024 yil bahor va kuz mavsumlarida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida jami 1,2 mln. tup, ulardan 719 ming tup bahor mavsumida va 481 ming tup kuz mavsumida ekilishi rejalashtirilgan.

Bugungi kunga qadar bahor (mart-aprel) mavsumida tarmoq korxonalarida 167,5 gektar maydonga jami 854,5 ming tup manzarali va mevali daraxt hamda buta ko‘chatlari ekilib, shundan 5 gektardan ortiq maydonda “yashil belbog‘”lar tashkil qilindi.

Albatta, har qanday ko‘chat e’tibor va parvarishni talab etadi. Bu masala ham ijobiy hal etilgan bo‘lib, ekilgan daraxtlarni parvarishlash, kasallikdan saqlash, tomchilab sug‘orish tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha mas’ullar belgilangan. Ayni paytda 18,3 gektar, ya’ni 27,7 ming tup manzarali va mevali daraxt hamda buta ko‘chatlari tomchilab sug‘orish tizimi orqali sug‘orilmoqda.

“O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalari tomonidan joriy yil kuz mavsumida jami 23 ming tup daraxt va buta ko‘chatlari ekilishi rejalashtirilgan. Mavsum boshlanganidan shu kunga qadar esa har bir hududning iqlimi, tuproq sharoitlaridan kelib chiqqan holda daraxt turi va ekish joylari belgilangan xolda 3098 tup daraxt va buta ko‘chatlari ekildi.

Mazkur xayrli loyiha doirasidagi ishlar faol davom ettiriladi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati